

O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA MAXSUS IQTISODIY ZONALAR VA SANOAT KLASSTERLARI VOSITASIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Urinov Bahrom Jamoliddinovich

Namangan davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti dekani PhD, dotsent.

Telefon: +998 91 365 99 90. Elektron pochta: urinov.bahrom@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada maxsus iqtisodiy zonalar (EIZ) va sanoat klasterlari integratsiyasi asosida O'zbekiston hududlarining investitsion faolligini oshirish mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi — langar korxonalar, kichik sanoat zonalar subpudratchilari, ilmiy-ta'lim muassasalari va davlat-xususiy sheriklik tizimini yagona kooperatsion ekotizimga birlashtiruvchi tashkiliy-iqtisodiy model ishlab chiqishdan iborat. Tahlilda lokalizatsiya koeffitsienti (LQ), investitsion multiplikator (M_{inv}) va kooperatsiya chuqurligi indeksi (K_{koop}) asosida 2020–2025 yillardagi empirik ma'lumotlar baholandi. Natijalar yetakchi EIZlarda (Navoiy, Jizzax, Angren) investitsion multiplikator yuqori bo'lsa-da, umumiy eksport ulushi va mahalliyashtirish darajasi pastligicha qolayotganini ko'rsatdi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan to'rt bosqichli model EIZlarni alohida imtiyoz maydonchalaridan hududiy sanoat klasterining institutsional yadrosiga aylantirish imkonini beradi. Shuningdek, boshqaruv kompaniyalari vakolatlarini kengaytirish va logistika xablarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: maxsus iqtisodiy zonalar; sanoat klasterlari; investitsion faollik; langar korxona; lokalizatsiya koeffitsienti; investitsion multiplikator; davlat-xususiy sheriklik; kichik sanoat zonalar; kooperatsion zanjir; hududiy rivojlantirish.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining so'nggi o'n yilliklardagi rivojlanish tendensiyalari sanoatlashuvning yangi bosqichi — hududiy darajada tashkil etilgan investitsiya institutlari orqali tezlashtirilayotganligi bilan tavsiflanadi. Agar maxsus iqtisodiy zonalar (EIZ) birinchi avlodi (1960–1980-yillar) faqat eksportga yo'naltirilgan yig'uv ishlab chiqarishni va arzon ishchi kuchini jalb qilishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi va uchinchi avlodlari sanoat diversifikatsiyasi hamda texnologik yangilanishga xizmat qildi. Bugungi kunda esa jahon amaliyotida EIZlarning to'rtinchi avlodi — klasterli, innovatsiyaga yo'naltirilgan zonalar shakllanmoqda, ularda soliq-bojxona imtiyozlari endi maqsad emas, balki hududiy kooperatsion ekotizimni qurishning vositasi sifatida qaraladi. Xitoyning Shenchjen va boshqa maxsus iqtisodiy hududlari, Turkiyaning tashkiliy sanoat zonalar (OSB) tizimi hamda Janubiy Koreyaning Masan erkin savdo zonasidan boshlab shakllangan elektronika klasterlari shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli barqaror natijaga faqat zona ichidagi langar korxonalar bilan mahalliy yetkazib beruvchilar o'rtasida chuqur ishlab chiqarish kooperatsiyasi vujudga kelgandagina erishiladi.

O'zbekiston uchun ushbu tendensiya alohida amaliy ahamiyat kasb etadi. 2020-

yil 17-fevralda qabul qilingan «Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi O'RQ-604-sonli Qonun [9] va Prezidentning 2022-yil 13-iyundagi PF-153-sonli Farmoni [12] bilan maxsus iqtisodiy, kichik sanoat hamda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini faoliyatini yagona tizimga birlashtirish boshlandi. Natijada 2020-yildagi 18 ta erkin iqtisodiy zona va 462 ta rezident korxona o'rnini 2024-yilga kelib 25 tagacha maxsus iqtisodiy zona, 500 dan ortiq kichik sanoat zonasi va 200 dan ortiq yoshlar sanoat-tadbirkorlik zonasi egalladi; ularda jami 730–756 ta sanoat zonasi doirasida qiymati o'n trilliondan ortiq so'mlik minglab investitsiya loyihalari joylashtirilgan [8; 13]. «O'zbekiston — 2030» strategiyasi (PF-158, 2023-yil 11-sentabr) [11] doirasida bu tuzilmalar mamlakat sanoat salohiyatini modernizatsiya qilish va hududiy tengsizlikni qisqartirishning asosiy tayanch nuqtalaridan biri sifatida belgilangan.

Shunga qaramay, amaldagi statistika muayyan muammoni ham ochib beradi: 2024-yilda 22 ta erkin iqtisodiy zonada faoliyat yuritgan 589 ta korxonadan atigi 18 foizi mahsulotini tashqi bozorga chiqargan, 372 tasi esa umuman eksport qilmagan [23], ishlab chiqarilgan mahsulotning faqat 16 foizi yuqori texnologiyali tovarlar hissasiga to'g'ri kelgan [3]. Bu raqamlar EIZ va kichik sanoat zonalarining sezilarli qismi hali ham faqat soliq-bojxona imtiyozidan foydalanuvchi, ammo hududning boshqa sanoat korxonalari, kichik biznesi va ilmiy-ta'lim muassasalari bilan barqaror vertikal hamda gorizontaal kooperatsion aloqalar o'rnatmagan «yopiq orolchalar» bo'lib qolayotganidan dalolat beradi. Natijada davlat tomonidan zonalarga yo'naltirilgan muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi xarajatlarining iqtisodiy qaytimi (multiplikativ samarasi) hududlar kesimida keskin farqlanmoqda, ba'zi zonalarda esa amalda past bo'lib qolmoqda.

Shu sababli tadqiqotning ilmiy muammosi quyidagicha shakllantiriladi: O'zbekistonda EIZ va kichik sanoat zonalarini tizimi, bir tomondan, hamda tarmoq sanoat klasterlari siyosati, ikkinchi tomondan, hozircha ikki mustaqil institutsional yo'nalish sifatida rivojlanmoqda, ularni yagona kooperatsion ekotizimga — «EIZ–klaster–universitet–davlat-xususiy sheriklik» — birlashtiruvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotning maqsadi — maxsus iqtisodiy zonalar negizida tarmoq sanoat klasterlarini integratsiyalash orqali hududlarning investitsion faolligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish va uni 2020–2025 yillar empirik ma'lumotlari asosida asoslashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: klaster nazariyasi va maxsus iqtisodiy zonalar samaradorligi bo'yicha xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilish; hududiy sanoat tarmoqlarining to'planish darajasini baholovchi metodik apparatni (lokalizatsiya koeffitsienti, investitsion multiplikator, kooperatsiya chuqurligi indeksi) shakllantirish; O'zbekistonning yetakchi EIZlari va tarmoq klasterlari bo'yicha 2020–2025 yillar statistikasini qiyosiy tahlil qilish; EIZ negizida sanoat klasterlarini integratsiyalashning tashkiliy-iqtisodiy modelini loyihalash; hukumat organlari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti — O'zbekiston Respublikasida 2020–2025 yillarda tashkil etilgan va faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalarini hamda ularga tutash tarmoq sanoat klasterlari (to'qimachilik-trikotaj, elektrotexnika, charm-

poyabzal, kimyo-farmatsevtika). Tadqiqot predmeti — ushbu tuzilmalar o'rtasida investitsion faollikni oshiruvchi tashkiliy-iqtisodiy va kooperatsion mexanizmlar.

Tadqiqot gipotezasi quyidagicha: maxsus iqtisodiy zonalar atrofida langar rezidentlarga tayangan tarmoq sanoat klasterlarining institutsional integratsiyasi, hududning investitsion multiplikativ samaradorligini soliq-bojxona imtiyozlariga tayangan an'anaviy modelga nisbatan sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, birinchi marta O'zbekiston EIZlari uchun lokalizatsiya koeffitsienti, investitsion multiplikator va kooperatsiya chuqurligi indeksidan iborat kompleks metodika qo'llanilgan holda hududiy zonalarining haqiqiy — nafaqat rasmiy statistik, balki funksional — samaradorligi baholandi hamda EIZ, klaster, ta'lim-ilmiy muassasa va davlat-xususiy sheriklikni birlashtiruvchi to'rt bosqichli tashkiliy model taklif etildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy iqtisodiy tuzilmalar nazariyasining klassik asoslari XIX asr oxiri — XX asr o'rtalarida shakllangan. Alfred Marshall (1890) [7] o'zining «sanoat okruglari» (industrial districts) kontseptsiyasida bir hududda joylashgan ixtisoslashgan kichik korxonalar o'rtasidagi geografik yaqinlik «tashqi aglomeratsiya tejamkorligi»ni — malakali ishchi kuchi bozorining shakllanishi, bilim va texnologiyaning tez tarqalishi hamda ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar tarmog'ining vujudga kelishini — ta'minlashini asoslab bergan edi. Fransua Perru (1955) [16] esa «o'sish qutblari» (pôles de croissance) nazariyasida iqtisodiy o'sish barcha hududlarda bir vaqtda emas, balki muayyan «yetakchi tarmoqlar» atrofida to'planganligini, bu tarmoqlarning ijobiy ta'siri esa qo'shni hududlarga tarqalish (diffuziya) mexanizmi orqali yoyilishini ko'rsatgan — bu g'oya keyinchalik langar korxona (anchor tenant) kontseptsiyasining nazariy negizini tashkil etdi.

Zamonaviy klaster nazariyasining asosiy metodologik poydevori Maykl Porter (1990, 1998) [17; 18] tomonidan «Milliy raqobatbardoshlik afzalliklari» va «olmos» (diamond) modeli orqali yaratilgan. Porter fikricha, tarmoqning xalqaro raqobatbardoshligi alohida korxonaning emas, balki o'zaro bog'liq korxonalar, yetkazib beruvchilar, ta'lim-ilmiy muassasalar va institutlarning geografik jihatdan to'plangan tarmog'i — klasterning funksiyasidir. Klaster ichida ixtisoslashuv, o'zaro raqobat va hamkorlik bir vaqtning o'zida mavjud bo'lib, bu innovatsion faollikni kuchaytiradi hamda tranzaksion xarajatlarni qisqartiradi. Porter modeli maxsus iqtisodiy zonalar siyosatini shakllantirishda dunyoning ko'plab mamlakatlari (jumladan Xitoy, Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklari) tomonidan amaliy tayanch nuqtasi sifatida qo'llanilgan.

E.I. Bey (2008) [1] o'zining dissertatsion tadqiqotida Rossiya Federatsiyasi mintaqalari misolida maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) siyosatini klaster nazariyasi bilan uyg'unlashtirish masalasini chuqur o'rgangan. Muallifning asosiy g'oyasi shundaki, MIZ ichida klaster siyosatini samarali amalga oshirish bozor tomonidan allaqachon vujudga kelgan yoki vujudga kelish salohiyatiga ega «langar» rezidentlarga — global bozorda raqobatbardosh bo'lgan va o'zining ijobiy ta'sirini atrofdagi yetkazib beruvchilar, iste'molchilar va hamkasb korxonalarga yo'naltiruvchi kuchli

kompaniyalarga — tayanishi lozim. Davlatning vazifasi esa aynan shu langar korxonalar atrofida yangi klasterlarning shakllanishi uchun zarur muhandislik infratuzilmasini va institutsional shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Bey ta’kidlashicha, bunday yondashuv biznes va davlat o’rtasidagi muloqotni yaxshilaydi, yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar, ta’lim muassasalari va moliya institutlari o’rtasidagi o’zaro aloqalarni rag’batlantiradi hamda ixtisoslashuv va autsorsing hisobiga klaster ishtirokchilarining umumiy samaradorligini oshiradi. Ushbu kontsepsiya — MIZning o’zi emas, balki uning atrofida shakllanadigan klaster tuzilmasi asosiy iqtisodiy samara manbai ekanligi — mazkur tadqiqotning ham metodologik negizini tashkil etadi.

So’nggi xalqaro tadqiqotlar rivojlanayotgan mamlakatlardagi maxsus iqtisodiy zonalar samaradorligiga nisbatan ancha tanqidiy nuqtai nazarni ilgari surmoqda. Frick, Rodríguez-Pose va Wong (2019) [5] 346 ta maxsus iqtisodiy zona bo’yicha o’tkazgan xalqaro qiyosiy tahlilida shuni aniqladilarki, faqat soliq va bojxona imtiyozlariga tayangan zonalar barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlamaydi — zonaning muvaffaqiyati, avvalo, mavjud institutsional sifat, transport-logistika bog’lanuvchanligi va mahalliy ishlab chiqarish tarmog’i bilan integratsiya darajasiga bog’liq ekan. UNCTAD (2024) Jahon investitsiyalar hisobotida [20] ham xuddi shunday xulosaga kelinadi: dunyo bo’yicha 4000 dan ortiq maxsus iqtisodiy zona faoliyat yuritayotgan bo’lib, ularning samaradorligi tobora ko’proq «yashil» va raqamli infratuzilma sifati hamda mahalliy qiymat zanjirlariga qo’shilish darajasi bilan belgilanmoqda, sof soliq imtiyozlariga asoslangan raqobat esa o’z samarasini yo’qotib bormoqda. Jahon banki tadqiqotchilari (Farole, 2011 [4]; Zeng, 2015 [21]) Afrika va Osiyo tajribasini qiyoslab, muvaffaqiyatli zonalarning barchasida davlat tomonidan yaratilgan infratuzilma xususiy investitsiyalar uchun «leveraj» vazifasini bajarganini, ya’ni har bir davlat so’mi bir necha baravar ko’p xususiy mablag’ni jalb etganini ko’rsatishgan.

O’zbekistonlik tadqiqotchilar orasida ham EIZ va klaster mavzusi so’nggi yillarda faollashdi. Chinmirzayev (2025) [2] EIZlarning xorijiy investorlar uchun jozibadorligini SWOT-tahlil asosida o’rgangan, biroq zonalarning hududiy sanoat bilan kooperatsion bog’lanishini alohida ko’rib chiqmagan. Mahalliy tadqiqotchilarning umumlashtiruvchi sharhlarida (2025) [15] EIZ boshqaruv kompaniyalari vakolatining cheklanganligi va erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari alohida muammo sifatida qayd etiladi. Kichik sanoat zonalar moliyaviy samaradorligiga bag’ishlangan tadqiqotlarda (2025) [6] ko’rsatilishicha, KSZlarda ishlab chiqarish hajmi 2019–2023 yillarda deyarli 3,8 baravar o’sgan bo’lsa-da, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi beqaror dinamikaga ega — bu zonalarning moliyalashtirish manbalari hali institutsional jihatdan barqarorlashmaganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, Navoiy EIZsi misolida o’tkazilgan tadqiqotlar (2024) [14] ushbu zonaning boshqa hududiy zonalarga nisbatan yuqori mehnat unumdorligi va investitsiya samaradorligini namoyon etayotganini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi tahlil quyidagi ilmiy bo’shliqni (research gap) ochib beradi: O’zbekistonlik tadqiqotchilarning aksariyati EIZ va KSZlarni yoki alohida institutsional shakl sifatida (huquqiy-tashkiliy jihatdan), yoki ularning umumiy

statistik samaradorligi nuqtai nazaridan o‘rganmoqda, biroq EIZ negizida shakllanayotgan (yoki shakllanishi mumkin bo‘lgan) tarmoq sanoat klasterlarining — langar korxona, subpudratchi kichik biznes, ta’lim-ilmiy muassasa va davlat-xususiy sheriklik ishtirokchilarining — yagona kooperatsion ekotizim sifatida institutsional modellashtirilishi deyarli amalga oshirilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, E.I. Bey (2008) tomonidan ilgari surilgan langar rezident kontseptsiyasini Porter klaster nazariyasi va zamonaviy xalqaro tanqidiy tadqiqotlar (Frick va boshq., 2019; UNCTAD, 2024) bilan uyg‘unlashtirgan holda, uni O‘zbekistonning 2020–2025 yillardagi amaliy statistik konteksti asosida rivojlantiradi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot miqdoriy-tahliliy yondashuvga asoslangan bo‘lib, ikkilamchi statistik ma’lumotlarni qayta ishlash va ularni maxsus ishlab chiqilgan ko‘rsatkichlar tizimi orqali baholashni nazarda tutadi. Bu tadqiqot dizayni boshqa tadqiqotchi tomonidan bir xil manba va formulalardan foydalangan holda to‘liq takrorlanishi mumkin bo‘lgan (replicable) shaklda tuzilgan.

Birinchi bosqichda lokalizatsiya koeffitsienti (Location Quotient — LQ) hisoblab chiqildi. Ushbu ko‘rsatkich muayyan hududda muayyan sanoat tarmog‘ining respublika o‘rtachasiga nisbatan qanchalik yuqori to‘planganligini aniqlaydi:

$$LQ = (e_{ir} / E_r) / (e_{in} / E_n)$$

Bu yerda: e_{ir} — i-hududdagi n-tarmoqning ishlab chiqarish hajmi (yoki bandlik darajasi); E_r — i-hududning umumiy sanoat ishlab chiqarishi; e_{in} — respublika bo‘yicha n-tarmoqning umumiy hajmi; E_n — respublika bo‘yicha umumiy sanoat ishlab chiqarishi. $LQ > 1$ qiymati hududda tegishli tarmoqning respublika o‘rtachasidan yuqori to‘planganligini, ya’ni potensial klaster yadrosi mavjudligini bildiradi.

Ikkinchi bosqichda EIZ va klasterlarning investitsion multiplikatori (M_{inv}) hisoblendi — bu ko‘rsatkich davlat tomonidan zonaga yo‘naltirilgan har bir so‘m markazlashgan muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi xarajatiga qancha xususiy (shu jumladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy) investitsiya to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi (leverage ratio):

$$M_{inv} = I_{xususiy} / I_{davlat}$$

Bu yerda $I_{xususiy}$ — zonaga jalb etilgan xususiy va xorijiy investitsiyalar hajmi, I_{davlat} — davlat tomonidan infratuzilmaga yo‘naltirilgan markazlashgan mablag‘lar hajmi. Ko‘rsatkich qanchalik yuqori bo‘lsa, davlat xarajatlarining «leveraj» samarasi shunchalik yuqori hisoblanadi.

Uchinchi bosqichda klaster ichidagi kooperatsiya va mahalliy lashtirish chuqurligi indeksi (K_{koop}) qo‘llanildi:

$$K_{koop} = (V_{mahalliy} / V_{umumiy}) \times 100\%$$

Bu yerda $V_{mahalliy}$ — klaster ichidagi rezident korxonalar tomonidan mahalliy yetkazib beruvchilardan (shu jumladan kichik sanoat zonalari subpudratchilaridan) sotib olingan xomashyo, komponent va xizmatlar qiymati, V_{umumiy} — rezident korxonalarning umumiy ishlab chiqarish xarajatlari hajmi. Ushbu indeks EIZ va klasterning hududiy iqtisodiyot bilan qanchalik chuqur

bog'langanini, ya'ni «anklav» emas, balki hududiy ishlab chiqarish tizimining organik qismi ekanligini ko'rsatadi.

To'rtinchi bosqichda EIZlarning hududiy yalpi mintaqaviy mahsulot (YaHM) va bandlikka qo'shgan hisssasi elastiklik koeffitsienti orqali baholandi:

$$E_{YaHM} = (\Delta YaHM_{EIZ} / YaHM_{EIZ}) / (\Delta I_{EIZ} / I_{EIZ})$$

bu yerda investitsiya hajmidagi foizli o'zgarishga nisbatan hududiy mahsulotdagi foizli o'zgarish ifodalanadi.

Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (miit.uz, gov.uz) [8; 19], Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Milliy statistika qo'mitasi (stat.uz) [13; 22], Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi (invest.gov.uz) hamda lex.uz huquqiy-me'yoriy hujjatlar bazasining [9; 10] 2020–2025 yillar davriga oid rasmiy ochiq statistik va me'yoriy-huquqiy ma'lumotlari tashkil etadi. Tanlanma sifatida faoliyat muddati kamida uch yilni tashkil etgan va rasmiy statistikada alohida hisobga olinadigan yetakchi besh maxsus iqtisodiy zona (Navoiy, Angren, Jizzax, Urgut, Qo'qon) hamda besh tarmoq sanoat klasteri (to'qimachilik-trikotaj, elektrotexnika, charm-poyabzal, kimyo-farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati) tanlab olindi. Ushbu tanlanma respublika miqyosidagi EIZ va klasterlarning tarmoq va hudud bo'yicha xilma-xilligini nisbatan to'liq aks ettiradi.

Ma'lumotlarni qayta ishlashda tavsiflovchi statistika (o'rtacha qiymatlar, o'sish sur'atlari, ulushlar) hamda hududlararo qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Barcha hisob-kitoblar Microsoft Excel muhitida amalga oshirilib, natijalar jadval va tuzilma (blok-sxema) shaklida taqdim etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2020–2025 yillar davomida O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalar tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga o'tdi: zonalar soni 18 tadan 25 tagacha, ularda faoliyat yuritayotgan rezident korxonalar soni 462 tadan 589–689 taga yetdi, kichik sanoat zonalar soni esa 500 dan oshdi [13]. 2024-yilning yakuniga ko'ra respublika bo'yicha jami 730–756 ta sanoat zonasida (25 ta MIZ, 507–529 ta KSZ, 201–202 ta YOSTZ) qiymati o'n trilliondan ortiq so'mlik minglab investitsiya loyihasi joylashtirilgan bo'lib, ularning bir qismi allaqachon ishga tushirilib, 250 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratilgan [8; 19]. Shu bilan birga, 1-jadvalda keltirilgan besh yetakchi EIZ misolida ko'rinib turibdiki, zonalar o'rtasida investitsion faollik darajasi bo'yicha sezilarli tafovut mavjud.

1-jadval.

2020–2025-yillarda O'zbekistondagi yetakchi erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining qiyosiy tahlili

EIZ nomi	Tashkil etilgan yili	Rezident korxonalar soni (2025)	Jami investitsiya 2020–2025, mlrd so'm	TXI ulushi, %	Mahsulot ishlab chiqarish 2024, mlrd so'm	Eksport 2024, mln AQSH dollari	Yaratilgan ish o'rni
Navoiy EIZ	2008	145	8 650	42	9 800	410	21 400
Jizzax	2013	78	5 340	51	6 020	245	11 800

EIZ							
Angren EIZ	2012	96	4 120	28	5 150	165	13 200
Urgut EIZ	2020	54	1 280	9	1 640	38	6 300
Qo'qon EIZ	2021	39	860	12	990	22	4 100

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, eng qadimgi va yirik zona bo'lgan Navoiy EIZsi jami investitsiya va ish o'rni yaratish bo'yicha yetakchilikni saqlab qolmoqda, biroq to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) ulushi bo'yicha Jizzax EIZsi (51%) ilg'orlik qilmoqda — bu Xitoy-O'zbekiston sanoat parki doirasidagi yirik xorijiy loyihalar hisobiga yuzaga kelgan. Yangi tashkil etilgan Urgut va Qo'qon EIZlari hali investitsiya va eksport ko'lamini bo'yicha sezilarli darajada orqada qolmoqda, bu ularning shakllanish bosqichida ekanligi bilan izohlanadi.

2-jadval.

Tarmoq sanoat klasterlarining asosiy ko'rsatkichlari (2020–2025-yillar)

Klaster	Korxonalar soni	Investitsiya 2020–2025, mlrd so'm	Mahalliy- tirish darajasi, %	Eksport geografiyasi (mamlakatlar soni)
To'qimachilik-trikotaj	340	12 400	61	45
Kimyo-farmatsevtika	96	6 700	29	19
Oziq-ovqat sanoati	260	4 950	68	33
Elektrotexnika	85	3 850	34	12
Charm-poyabzal	210	2 260	47	28

2-jadvaldan ko'rinadiki, mahalliy qishloq xo'jaligi xomashyosiga tayangan to'qimachilik-trikotaj va oziq-ovqat klasterlari eng yuqori mahalliy lashtirish darajasiga ega, shu bilan birga eng keng eksport geografiyasini ham qamrab olgan.



1-rasm. Erkin iqtisodiy zonalar negizida sanoat klasterlarini integratsiyalashning tashkiliy-iqtisodiy modeli

Buning aksicha, texnologik jihatdan murakkabroq elektrotexnika va kimyo-farmatsevtika klasterlarida import qilinadigan komponent va faol moddalarga bog'liqlik yuqoriligicha qolmoqda, bu esa ushbu tarmoqlarda mahalliy subpudrat ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishni belgilaydi.

3-jadval.

EIZlarning investitsion multiplikativ samaradorligi (M_{inv}) va lokalizatsiya koeffitsienti (LQ) hisob-kitob natijalari

EIZ nomi	Davlat infratuzilma xarajati, mlrd so'm	Xususiyy investitsiya, mlrd so'm	M_{inv} (barobar)	Yetakchi tarmoq	LQ	K_{koop} , %
Navoiy EIZ	480	8 650	18,0	Kimyo-metallurgiya	2,4	38
Jizzax EIZ	260	5 340	20,5	Mashinasozlik	2,1	33
Angren EIZ	310	4 120	13,3	Elektrotexnika	1,6	27
Urgut EIZ	190	1 280	6,7	Tekstil-savdo	1,1	14
Qo'qon EIZ	140	860	6,1	Oziq-ovqat	0,9	11
Respublika o'rtachasi	—	—	9,8	—	—	19

3-jadval natijalari shuni tasdiqlaydiki, yuqori LQ qiymatiga ega (ya'ni aniq ixtisoslashgan yetakchi tarmoqqa tayangan) EIZlarda investitsion multiplikator ham respublika o'rtachasidan (9,8 barobar) sezilarli yuqori: Jizzaxda 20,5, Navoiyda 18,0, Angrenda 13,3 barobarni tashkil etadi. Buning aksicha, ixtisoslashuvi hali aniq shakllanmagan Urgut va Qo'qon EIZlarida M_{inv} respublika o'rtachasidan sezilarli past (mos ravishda 6,7 va 6,1 barobar). Shu bilan birga, hatto yetakchi zonalarda ham K_{koop} ko'rsatkichi 40 foizdan oshmasligi, klaster ichidagi mahalliy lashtirish salohiyati hali to'liq ishga solinmaganligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, EIZlarning investitsion multiplikativ samaradorligi (M_{inv}) va lokalizatsiya koeffitsienti (LQ) o'rtasida barqaror ijobiy bog'liqlik mavjud: Jizzax va Navoiy EIZlarida, qayerdagi LQ 2,0 dan yuqori bo'lib, ya'ni hududda tegishli sanoat tarmog'i (mashinasozlik, kimyo-metallurgiya) respublika o'rtachasidan sezilarli darajada to'plangan, davlat infratuzilma xarajatlariga nisbatan xususiyy investitsiyalar leveraji ham eng yuqori (mos ravishda 20,5 va 18,0 barobar) bo'lib chiqdi. Bu holat Bey (2008) [1] tomonidan ilgari surilgan «langar rezident» kontseptsiyasining O'zbekiston sharoitidagi amaliy tasdig'i hisoblanadi: Jizzaxda xitoy-o'zbek sanoat parki doirasidagi yirik mashinasozlik va elektronika korxonalari, Navoiyda esa kon-metallurgiya kombinati atrofida shakllangan yordamchi ishlab chiqarish tarmog'i xuddi Bey tasvirlagan «langar korxona — subpudratchilar tarmog'i» sxemasi bo'yicha ishlamoqda. Shu bilan birga, mazkur zonalarda ham K_{koop} ko'rsatkichi (33–38%) hali xalqaro amaliyotdagi yetakchi klasterlar darajasidan (odatda 55–70%) sezilarli pastligicha qolmoqda — bu shuni anglatadiki, langar korxonalar mavjud bo'lsa-da, ular atrofidagi mahalliy subpudrat tarmog'i hali yetarlicha chuqur shakllanmagan.

Urgut va Qo'qon EIZlarida vaziyat farqli: past LQ (mos ravishda 1,1 va 0,9, ya'ni birdan kam yoki unga yaqin) va past M_{inv} (6,1–6,7) shuni ko'rsatadiki, bu zonalarda hali aniq ixtisoslashgan yetakchi tarmoq shakllanmagan, zona ko'proq turli, bir-biri bilan bog'lanmagan kichik loyihalar to'plami sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu,

o'z navbatida, Frick, Rodríguez-Pose va Wong (2019) [5] xulosalarini tasdiqlaydi: institutsional va logistik jihatdan yetarli darajada tayyorlanmagan hududlarda yaratilgan zonalar faqat soliq imtiyozi hisobiga investorlarni jalb qilishga urinadi, biroq bu strategiya uzoq muddatda barqaror natija bermaydi.

Umumrespublika miqyosida 2024-yilgi statistikaning yana bir muhim jhati — 22 ta EIZda faoliyat yuritgan korxonalarining atigi 18 foizi mahsulotini eksport qilgani, 372 tasi esa umuman eksport amalga oshirmagani. Bu, avvalo, shundan dalolat beradiki, ko'pgina rezident korxonalar EIZga faqat ichki bozor uchun import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarish maqsadida, ya'ni asosan soliq-bojxona imtiyozidan foydalanish uchun kirgan, jahon bozoriga chiqishni esa strategik maqsad qilib qo'ymagan. Bu holat kirish qismida qayd etilgan ilmiy muammoni — zonalarining «yopiq orolcha» bo'lib qolayotganini — statistik jihatdan yana bir bor tasdiqlaydi.

Tarmoq klasterlari kesimida (2-jadval) eng yuqori mahalliyashtirish darajasi oziq-ovqat sanoati (68%) va to'qimachilik-trikotaj (61%) klasterlarida qayd etildi — bu tabiiy, chunki bu tarmoqlar mahalliy qishloq xo'jaligi xomashyosiga (paxta tolasi, g'alla, meva-sabzavot) bevosita tayanadi. Elektrotexnika (34%) va kimyo-farmatsevtika (29%) klasterlarida esa mahalliyashtirish darajasi ancha past, chunki bu tarmoqlarda ishlab chiqarish uchun zarur murakkab komponentlar va faol moddalar hali mahalliy ishlab chiqarilmaydi, balki import qilinadi. Bu holat aynan shu ikki tarmoqda EIZ-klaster integratsiyasi va import o'rnini bosuvchi subpudrat ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha eng katta salohiyat mavjudligini ko'rsatadi.

Olingan natijalarni kirish qismida qo'yilgan tadqiqot gipotezasi bilan solishtirilganda quyidagi xulosaga kelish mumkin: gipoteza qisman tasdiqlandi. Haqiqatan ham, langar rezidentlarga tayangan va aniq tarmoq ixtisoslashuviga ega EIZlarda (Navoiy, Jizzax, Angren) investitsion multiplikativ samaradorlik respublika o'rtachasidan sezilarli yuqori. Biroq bu yuqori multiplikator hali avtomatik ravishda yuqori mahalliyashtirish va eksport faolligiga aylanmayapti — demak, faqat langar korxona mavjudligi yetarli emas, balki uni atrofdagi kichik sanoat zonolari va ta'lim-ilmiy muassasalar bilan institutsional jihatdan maqsadli bog'lovchi qo'shimcha mexanizmlar zarur.

Shu asosda tadqiqotda EIZ negizida sanoat klasterlarini integratsiyalashning tashkiliy-iqtisodiy modeli ishlab chiqildi (1-rasm). Model to'rt asosiy blokdan iborat: birinchi blok — davlat muhandislik infratuzilmasi va davlat-xususiy sheriklik (DXSh) shartnomalari, ular zonaning transport, energetika va kommunikatsiya tayanchini yaratadi; ikkinchi blok — langar korxona (anchor), ya'ni global yoki mintaqaviy bozorda raqobatbardosh yirik rezident, u zona atrofida talab shakllantiruvchi markaz vazifasini bajaradi; uchinchi blok — kichik sanoat zonolari subpudrati, ya'ni langar korxonaga komponent, xizmat va yarim tayyor mahsulot yetkazib beruvchi mahalliy kichik va o'rta korxonalar tarmog'i; to'rtinchi blok — universitet va ilmiy-tadqiqot (R&D) markazlari hamda logistika-eksport xablari, ular malakali kadrlar, texnologik yechimlar va xalqaro bozorga chiqish kanallarini ta'minlaydi. Ushbu to'rt blok o'rtasidagi aloqalar ikki tomonlama (feedback) xarakterga ega bo'lishi, ya'ni nafaqat davlatdan langar korxonaga, balki subpudratchilardan langar korxonaga va undan universitetlarga ham axborot va texnologiya oqimi yo'naltirilishi zarur.

Tadqiqotning cheklovlari (limitations) sifatida quyidagilarni qayd etish lozim: birinchidan, hisob-kitoblar rasmiy ochiq statistik hisobotlar asosida umumlashtirilgan bo'lib, ayrim yangi tashkil etilgan zonalar bo'yicha (masalan, Urgut, Qo'qon) uzun vaqt qatorlari hali shakllanmagan; ikkinchidan, kooperatsiya chuqurligi indeksi (K_{koop}) korxonalarining ichki xarid tuzilmasi bo'yicha to'liq shaffof ma'lumot mavjud bo'lmagani sababli qisman baholovchi xarakterga ega; uchinchidan, tadqiqot besh EIZ va besh klaster bilan cheklangan bo'lib, barcha 25 zona bo'yicha to'liq tanlanma keyingi tadqiqotlar mavzusi bo'lishi mumkin.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi. Birinchidan, 2020–2025 yillarda O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini soni jadal o'sdi (18 tadan 25 tagacha EIZ, 500 dan ortiq KSZ), biroq bu miqdoriy o'sish hali barcha zonalarda sifat jihatidan yuqori investitsion samaradorlikka aylanmagan: 2024-yilda EIZ rezidentlarining atigi 18 foizi eksport qilgan, mahsulotning faqat 16 foizi yuqori texnologiyali hisoblangan. Ikkinchidan, investitsion multiplikator va lokalizatsiya koeffitsienti bo'yicha o'tkazilgan hisob-kitoblar aniq ixtisoslashgan langar korxonalarga ega EIZlarning (Navoiy, Jizzax, Angren) respublika o'rtachasidan sezilarli yuqori samaradorlikka ega ekanligini, biroq mahalliy lashtirish darajasi (K_{koop} 33–38%) hali yetarli emasligini ko'rsatdi. Uchinchidan, ishlab chiqilgan to'rt bosqichli tashkiliy-iqtisodiy model — davlat infratuzilmasi, langar rezident, subpudratchi kichik biznes va universitet-logistika bloki — EIZlarni izolyatsiyalangan imtiyoz maydonchalaridan hududiy klaster tizimining institutsional yadrosiga aylantirish yo'lini taklif etadi.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilar taklif etiladi: EIZ boshqaruv kompaniyalariga rezident tanlashda ixtisoslashuv va kooperatsiya mezonlarini majburiy joriy etish vakolatini berish; har bir yirik EIZ negizida kamida bitta tegishli mutaxassislik yo'nalishidagi ta'lim-amaliyot markazini (universitet filiali yoki kasb-hunar markazini) joylashtirish; kichik sanoat zonalarini langar korxonalarga subpudrat yetkazib beruvchi sifatida rasmiy ro'yxatga olish va ularga yengillashtirilgan kreditlash mexanizmini joriy etish; davlat-xususiy sheriklik asosida yirik EIZlar negizida hududlararo bojxona-logistika xabrlarini barpo etish. Tadqiqotning kelgusi yo'nalishlari sifatida barcha 25 EIZ va 500 dan ortiq KSZni qamrab oluvchi to'liq panel-ma'lumotlar bazasi asosida ekonometrik tahlil o'tkazish, shuningdek K_{koop} indeksini korxonalar darajasidagi so'rovnoma ma'lumotlari bilan boyitish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бей Э.И. Инвестиционная привлекательность регионов как фактор развития национальной экономики России: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. — М.: Государственный университет управления, 2008. — 188 с.
2. Chinmirzayev Sh.S. Erkin iqtisodiy zonalar: O'zbekistonni xorijiy investorlar uchun jozibador qilish // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. — 2025. — № 45(2). — B. 323–329. — URL: <https://inlibrary.uz/index.php/tinnint/article/view/94386>
3. Erkin iqtisodiy zonalar orqali eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlari //

- Tadqiqotlar ilmiy jurnali. — 2025. — Elektron resurs. — URL: <https://inlibrary.uz/index.php/tadqiqotlar/article/view/96683>
4. Farole T. Special Economic Zones in Africa: Comparing Performance and Learning from Global Experience. — Washington, D.C.: The World Bank, 2011. — 344 p.
5. Frick S.A., Rodríguez-Pose A., Wong M.D. Toward Economically Dynamic Special Economic Zones in Developing Countries // *Economic Geography*. — 2019. — Vol. 95, № 1. — P. 30–64.
6. Kichik sanoat zonalari rivojlanishining hozirgi holati va istiqbollari // *Ilmiy-amaliy jurnal*. — 2025. — Elektron resurs. — URL: <https://science-technology.uz/index.php/journal/article/download/307/264/527>
7. Marshall A. Principles of Economics. — London: Macmillan and Co., 1890. — 754 p.
8. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil yakunlari bo‘yicha hisoboti // O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. — URL: <https://gov.uz/oz/miit/sections/view/7405>
9. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi O‘RQ-604-sonli «Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida»gi Qonuni. — URL: <https://lex.uz/docs/-4737511>
10. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-dekabrdagi O‘RQ-1010-sonli «Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida»gi Qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi Qonuni. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7249426>
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-iyundagi PF-153-sonli «Maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyati samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.
13. Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ), kichik sanoat zonalari (KSZ), texnoparklar va klasterlar ishtirokchilari soni // O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. — URL: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/63922>
14. Navoiy erkin iqtisodiy zonasida tadbirkorlik subyektlarining samaradorligi statistik ko‘rsatkichlari tahlili // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy-elektron jurnali*. — 2024. — URL: <https://www.researchgate.net/publication/390188091>
15. O‘zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zona, texnopark va klasterlar faoliyatining statistik tahlili // *Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali*. — 2025. — URL: <https://worldlyjournals.com/index.php/ituy/article/view/22002>
16. Perroux F. Note sur la notion de «pôle de croissance» // *Economie Appliquée*. — 1955. — Vol. 8. — P. 307–320.
17. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. — New York: Free Press, 1990. — 855 p.
18. Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition // *Harvard Business Review*. — 1998. — Vol. 76, № 6. — P. 77–90.
19. Sanoat zonalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlash yakunlari // *Aniq.uz axborot agentligi*. — 2024. — URL: <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/2024-yilda-sanoat-zonalarini-tashqi-muhandislik->

kommunikasiya-tarmoqlari-bilan-taminlash-uchun-106-ta-obektga-1-5-trln-sum-byudjet-mablaglari-ajratilgan

20. UNCTAD. World Investment Report 2024. — Geneva: United Nations, 2024.

21. Zeng D.Z. Global Experiences with Special Economic Zones: Focus on China and Africa. World Bank Policy Research Working Paper No. 7240. — Washington, D.C.: The World Bank, 2015. — 44 p.

22. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 2025-yilgi yalpi ichki mahsulot hajmi bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar // Spot.uz. — 2026. — URL: <https://www.spot.uz/oz/2026/01/23/gdp-25/>

23. O‘zbekistonda eksportga ishlaydigan erkin iqtisodiy zonalar tashkil etiladi // Spot.uz. — 2025. — URL: <https://www.spot.uz/oz/2025/01/17/export-stimulation/>